

ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI HOLATI

Abduraximova Gulnoza Baydulla qizi

*Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi ona tili fani katta o'qituvchisi,
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi
maqsadazimbaev@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilingan. Kasbiy kompetensiya tushunchasining mohiyati va tarkibiy qismlari ochib berilib, soha bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hamda institutsional asoslar – jumladan, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi, mentorlik instituti va raqamli platformalar – ko'rib chiqilgan. Mavjud ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, mazmun va shakl nomutanosibliigi, predmet hamda metodika o'rtasidagi uzilish, refleksiv madaniyatning yetishmasligi kabi muammolar aniqlangan. Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida tizimni jarayon ko'rsatkichlaridan natija o'lchoviga yo'naltirish zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, ona tili va adabiyot o'qituvchisi, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, malaka oshirish, mentorlik, metodik kompetensiya, refleksiya, ta'lim sifati.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние развития профессиональной компетентности учителей родного языка и литературы в Узбекистане. Раскрыты сущность и структурные компоненты профессиональной компетентности, рассмотрены действующие нормативно-правовые и институциональные основы – система непрерывного профессионального развития, институт наставничества и цифровые платформы. Наряду с позитивными изменениями выявлены проблемы: несоответствие содержания и формы, разрыв между предметной и методической подготовкой, недостаточная рефлексивная культура. На основе сравнительного анализа зарубежного опыта обоснована необходимость переориентации системы с процессных показателей на измерение результата.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, учитель родного языка и литературы, непрерывное профессиональное развитие, повышение квалификации, наставничество, методическая компетентность, рефлексия, качество образования.

Abstract. The article analyses the current state of developing the professional competence of native language and literature teachers in Uzbekistan. It clarifies the essence and structural components of professional competence and examines the relevant legal and institutional frameworks, including the system of continuous professional development, the mentoring institution and digital platforms. Alongside positive changes, the study identifies problems such as a mismatch between content and form, a gap between subject and methodological preparation, and an insufficient reflective culture. Based on a comparative analysis of international experience, the article substantiates the need to reorient the system from process indicators towards outcome measurement.

Key words: professional competence, native language and literature teacher, continuous professional development, in-service training, mentoring, methodological competence, reflection, quality of education.

Kirish. Ta'lim sifati, eng avvalo, o'qituvchining kasbiy mahorati bilan belgilanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi: xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini sifat jihatidan yangilash vazifasi belgilab qo'yilgan. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da esa inson kapitalini rivojlantirish va

o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish alohida vazifa sifatida ilgari surilgan. Bu hujjatlar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tizimli, uzluksiz va natijaga yo'naltirilgan jarayonga aylantirishni talab etadi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi bu vazifalar tizimida alohida o'rin tutadi, chunki uning faoliyati davlat tilining mavqeini mustahkamlash va milliy madaniy qadriyatlarni avlodlardan avlodga yetkazish bilan bevosita bog'liq. Shu bois ushbu toifadagi o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning bugungi holatini ilmiy asosda baholash, erishilgan natijalar bilan birga mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi – ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning amaldagi holatini tahlil qilish, uning ijobiy jihatlari va ziddiyatlarini aniqlash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

Mavzuning dolzarbliigi yana shu bilan belgilanadiki, so'nggi yillarda yaratilgan keng imkoniyatlar – uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi, raqamli platformalar, mentorlik – bilan ularning amaliy samaradorligi o'rtasidagi muvofiqlik masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlar kasbiy kompetensiyaning nazariy mohiyati yoki uni shakllantirish metodikasiga bag'ishlangan bo'lsa-da, aynan ona tili va adabiyot o'qituvchilari misolida amaldagi holatni tizimli, qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan ishlar nisbatan kam. Mazkur maqola shu bo'shliqni qisman to'ldirishga va keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kasbiy kompetensiya muammosi xorijiy va milliy pedagogikada keng o'rganilgan. A.V. Xutorskoyniing yondashuviga ko'ra, kompetensiya – shaxsdan tashqarida, ijtimoiy talab sifatida oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va faoliyat usullari majmuyi bo'lsa, kompetentlik – shu majmuyni shaxs o'zlashtirib, faoliyatda namoyon qiladigan sifatidir[3:64]. I.A.Zimnyaya kompetentlikni insonning intellektual va shaxsiy-kasbiy faoliyatiga asoslangan, bilim, ko'nikma va munosabatlarni yaxlit birlashtiruvchi integrativ xususiyat sifatida talqin qiladi. Demak, o'qituvchining kasbiy kompetentligi nafaqat fanni bilish, balki shu bilimni o'quvchida natija beradigan tarzda tatbiq eta olish qobiliyatidir.

Milliy pedagogikada N.A.Muslimov va hammualliflar kasbiy kompetentlik tarkibiga ijtimoiy, maxsus (kasbiy), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlikni kiritib, maxsus kompetentlikni psixologik, metodik, axborot, kreativ, innovatsion va kommunikativ qismlarga ajratadilar [4:6]. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy negizini esa D. Hymes ishlab chiqib, tilning grammatik to'g'riligi bilan birga ijtimoiy moslikni ham muhim deb belgilagan. Ona tili o'qituvchisi uchun bu jihat ayniqsa muhim, zero uning nutqi o'quvchilar uchun bevosita namuna vazifasini bajaradi. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etgan Q. Yo'ldoshev badiiy asar tahlili o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga, ijodiy yondashishga va xulosa chiqarishga o'rgatishi lozimligini ta'kidlaydi[9:216].

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning real vaziyatlarda samarali harakat qila olish qobiliyati sifatida talqin qilishga o'tish jarayonida shakllandi. Bu nuqtai nazar o'qituvchining kasbiy o'sishini tashqaridan beriladigan narsa emas, balki ichki faollik talab qiladigan jarayon sifatida ko'rishni taqozo etadi; shuning uchun ham refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasi tizimning markaziy bog'iniga aylanadi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchida shakllantirilishi lozim bo'lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni belgilab beradi; mantiqan, o'quvchida bu kompetensiyalarni shakllantira oladigan o'qituvchining o'zida ularning yetuk kasbiy mutanosibi bo'lishi shart.

Ona tili va adabiyot fanining o'ziga xosligi shundaki, uning ikki tarkibiy qismi o'qituvchidan bir-birini to'ldiruvchi, ammo farqli mahoratni talab qiladi: til bo'limi aniq qoidalar va me'yorlar bilan ishlashni, adabiyot bo'limi esa badiiy obraz, estetik baho va shaxsiy talqin bilan ishlashni taqozo etadi. Bundan tashqari, raqamli davr o'qituvchidan elektron matn va audio-vizual resurslar bilan ishlash, o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro baholash mezonlari asosida shakllantirish kabi yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Bu yo'nalish davlat siyosatida alohida urg'u olayotgan bo'lsa-da, ko'pgina amaliyotchi o'qituvchilar uchun nisbatan yangi soha bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotda nazariy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ona tili va adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlar tizimi sifatida ko'rib chiqildi:

1-jadval. Ona tili va adabiyot o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlari

Kompetensiya turi	Ona tili va adabiyot o'qituvchisida namoyon bo'lishi
Predmet (maxsus)	Til sathlari, grammatika, badiiy asar tahlili, adabiyot tarixi va nazariyasini chuqur bilish
Metodik	Til va adabiyotni o'qitishning zamonaviy metodlari, dars loyihalash, baholash, differentsiatsiya
Kommunikativ	Ravon og'zaki va yozma nutq, o'quvchi bilan samarali muloqot, nutqiy namuna bo'lish
Axborot-kommunikatsion	Raqamli resurslar, elektron platformalar va AKTdan unumli foydalanish
Innovatsion va refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish, ilg'or tajribani joriy etish, izlanuvchanlik

Mazkur tarkibiy qismlarning muvozanatli rivojlanishi o'qituvchining yaxlit kasbiy kompetentligini ta'minlaydi. Bugungi holatni baholash ushbu qismlarning real shakllanganlik darajasini aniqlashni taqozo etadi.

Natijalar va ularning tahlili. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining kasbiy o'sishini ta'minlovchi tizim so'nggi yillarda tubdan o'zgardi. Eng muhim o'zgarish 2024-yilda amalga oshirildi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi qarori bilan maktab ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi, unga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tegishli nizom tasdiqlandi. Natijada malaka oshirish an'anaviy

“besh yilda bir marta kurs” modelidan uzluksiz kasbiy rivojlantirish modeliga o‘tkazildi: 2025-yildan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Yangi tizimning muhim jihati – mentorlik institutining joriy etilishidir: har bir tuman yoki shaharda yuqori malakali o‘qituvchilar orasidan fanlar kesimida mentorlar tayinlanib, ular hamkasblarining darslarini tahlil qiladi va metodik yordam ko‘rsatadi. Mentorlik faoliyatiga moddiy rag‘batlantirish belgilangani tizimning barqarorligini oshiradi. Institutsional jihatdan A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti va hududiy markazlar, shuningdek, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi markaziy o‘rin tutadi; raqamli infratuzilma malaka oshirishni hududiy va vaqt cheklovlaridan ozod qiladi.

Tizimning ijobiy o‘zgarishlari bir qator yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda. Malaka oshirish epizodik tadbirdan doimiy jarayonga aylandi; “Kasbiy rivojlanish kuni” doirasida darslarning muntazam tahlil qilinishi o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashinuvini kuchaytirmoqda. O‘qituvchi kasbiga davlat va jamiyat e‘tibori ortib, kasbning maqomi va kasbiy o‘sish istiqbollari yaxshilandi; bu filologiya yo‘nalishiga salohiyatli yoshlarning kelishi uchun rag‘bat yaratmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilib, ularga zamonaviy metodlar va AKT komponentlari kiritildi. Bu o‘zgarishlar tizimning tashkiliy salohiyati yuqori ekanini ko‘rsatadi, ammo keng qamrov samaradorlikning faqat dastlabki sharti bo‘lib, uning kafolati emasligini ham unutmazlik lozim.

Shu bilan birga, tahlil bir qator tizimli muammolarni ham aniqladi. Birinchidan, kasbiy rivojlantirish tadbirlari ko‘pincha qamrov ko‘rsatkichlari (qatnashganlar soni, sertifikatlar miqdori) bo‘yicha baholanadi; biroq miqdoriy qamrov o‘qituvchining real metodik mahorati o‘zgarishini har doim ham aks ettirmaydi. Ikkinchidan, ayrim o‘qituvchilarda fanni chuqur bilish kuzatilsa-da, uni o‘quvchida natija beradigan metodik shaklga keltirish ko‘nikmasi yetishmaydi – ya’ni predmet va metodika o‘rtasida uzilish mavjud. Uchinchidan, AKTdan foydalanish darajasi o‘qituvchilar orasida sezilarli farq qiladi va raqamli kompetensiya notekis shakllangan.

To‘rtinchidan, o‘qituvchining o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishga yo‘naltirilgan refleksiv madaniyati hamda izlanuvchanlik motivatsiyasi yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaydi; kasbiy rivojlanish ko‘pincha tashqi talab sifatida qabul qilinadi. Beshinchidan, yuqori dars yuki va hujjatchilik o‘qituvchining mustaqil izlanishga ajratadigan vaqtini cheklaydi; bu ayniqsa ko‘p matn bilan ishlaydigan adabiyot o‘qituvchisi uchun jiddiy to‘siqdir. Oltinchidan, shahar va qishloq maktablari o‘rtasida metodik resurslar va internet infratuzilmasi bilan ta‘minlanishdagi tafovutlar kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining teng emasligiga olib keladi.

Sanab o‘tilgan muammolar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning umumiy ildizi tizimning natijadan ko‘ra jarayon ko‘rsatkichlariga yo‘naltirilganligida va o‘qituvchining ichki

motivatsiyasini rag'batlantiruvchi mexanizmlarning yetarli ishlanmaganligida ko'rinadi. Xalqaro tajriba ham buni tasdiqlaydi: OECDning TALIS tadqiqotlari o'qituvchini umrbod o'rganuvchi sifatida ko'rishni va kasbiy rivojlanishni maktab ichidagi hamkorlik madaniyati bilan bog'lashni asosiy yondashuv deb belgilaydi. L. Darling-Hammond va hammualliflari samarali kasbiy rivojlanishning predmet mazmuniga yo'naltirilganlik, faol o'rganish, hamkorlik, murabbiylik qo'llab-quvvatlovi, refleksiya va yetarli vaqt kabi belgilarini ajratadilar. P.Sahlberg esa Finlyandiya misolida kasbiy rivojlanish o'qituvchining ichki ehtiyojiga aylanishi, unga keng kasbiy avtonomiya berilishi muhimligini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil milliy tizimning institutsional jihatdan ilg'or xalqaro amaliyotga yaqinlashganini ko'rsatadi: mentorlik, uzluksizlik, raqamli platformalar zamonaviy tendensiyalarga mos. Asosiy farq esa baholash falsafasida: rivojlangan tizimlar kasbiy rivojlanishni o'quvchi yutuqlariga ta'siri orqali o'lchaydi, milliy amaliyotda esa hozircha jarayon ko'rsatkichlari va tashqi nazorat ustun turadi.

Mavjud holatni obyektiv baholash uchun aniq mezoniy asos zarur. Tadqiqotda o'qituvchi kasbiy kompetensiyasini baholashda to'rt mezon – motivatsion-qadriyatga oid, bilim-mazmuniy, faoliyat-amaliy va refleksiv mezonlar – ajratildi. Ushbu mezonlar bo'yicha kompetentlikning uch darajasi belgilanadi: past (reproduktiv) darajada o'qituvchi bilimni asosan tayyor holda bayon qiladi va andozaviy usullarni qo'llaydi; o'rta (konstruktiv) darajada materialni o'quvchi xususiyatlariga moslab, metodlarni vaziyatga qarab tanlaydi; yuqori (ijodiy-innovatsion) darajada esa muammoli vaziyatlar yaratadi, badiiy matnni chuqur tahlil qilishga o'rgatadi, zamonaviy vositalardan erkin foydalanadi va o'z tajribasini hamkasblariga uzatadi. Ushbu mezon va darajalar o'qituvchining real holatini tashxislash hamda uning kasbiy o'sishini izchil kuzatish imkonini beradi.

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, ona tili va adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi predmet, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion, innovatsion va refleksiv tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizim bo'lib, uni rivojlantirish ushbu qismlarni muvozanatli shakllantirishni talab etadi. Ikkinchidan, so'nggi yillarda yaratilgan normativ-huquqiy va institutsional asoslar uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi; mentorlik instituti, "Kasbiy rivojlanish kuni" va raqamli platformalar uning amaliy mexanizmlari sifatida ish boshladi.

Xulosa. erishilgan natijalarga qaramay, mazmun va shakl nomutanosibligi, predmet va metodika o'rtasidagi uzilish, raqamli kompetensiyaning notekisligi, refleksiv madaniyatning yetishmasligi hamda hududiy tafovutlar kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ularni bartaraf etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: kasbiy rivojlantirish samaradorligini qamrov emas, balki o'quvchi natijasiga ta'sir mezonlari asosida baholash; predmet va metodik tayyorgarlikni integratsiyalashgan holda rivojlantirish; mentorlik faoliyatini real dars tahliliga yo'naltirish; o'qituvchining ichki motivatsiyasi va refleksiv madaniyatini rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish; hududiy tafovutlarni

kamaytiruvchi maqsadli choralarni ko'rish. Bu yo'nalishlar ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning natijaga yo'naltirilgan samarali modelini yaratish uchun asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Lex.uz.
2. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan. – Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son qarori. – Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 867-son qarori. – Lex.uz.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 5.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – Москва, 2003. – №2. – С. 58–64.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
8. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / Eds. J.B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
9. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent, 2006. – 216 b.